

## PROBATSIIYA XIZMATIDA QIDIRUV ISHLARINI TASHKIL ETISH

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim 3-o'quv kursi kursanti*

**Abdulxamidov Samandar Ziyobidin o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya*

*faoliyati kafedrası katta o'qituvchisi*

**Umaraliyeva Dilshodaxon Nabijonovna**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada probatsiya xizmatida qidiruv ishlarini tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Probatsiya tizimida qidiruv ishlari shaxsning turgan joyini aniqlash bilangina cheklanmay, balki sud belgilagan taqiq va majburiyatlar ijrosini ta'minlash, takroriy huquqbuzarliklarning oldini olish, nazoratdan bo'yin tovlash holatlarini bartaraf etish hamda probatsiya nazoratidagi shaxsni qayta ijtimoiy-lashtirishga xizmat qiladi. Maqolada probatsiya xizmatining vakolatlari, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat-qidiruv bo'linmalari bilan hamkorlik, sudga taqdimnoma kiritish tartibi, elektron kuzatuv vositalari va axborot tizimlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, qidiruv ishlarining sama-radorligini oshirish uchun raqamlashtirish, idoralararo axborot almashinuvi, mahalla va jamoat tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda individual yondashuvni chuqurlashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. 1*

**Kalit so'zlar:** *probatsiya, qidiruv ishlari, probatsiya nazorati, sudga taqdimnoma, elektron braslet, profilaktika, ijtimoiy moslashtirish.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются правовые и организационные основы организации розыскной деятельности в службе пробации. Розыскная работа в системе пробации не ограничивается лишь установлением местонахождения лица, но также направлена на обеспечение исполнения ограничений и*

*обязанностей, установленных судом, предупреждение повторных правонарушений, пресечение уклонения от контроля и содействие ресоциализации осужденного. В статье освещаются полномочия службы пробации, вопросы взаимодействия с подразделениями профилактики правонарушений и уголовного розыска органов внутренних дел, порядок внесения представления в суд, а также использование электронных средств контроля и информационных систем. Кроме того, предлагаются меры по повышению эффективности розыскной работы путем цифровизации, усиления межведомственного обмена информацией, расширения сотрудничества с институтами махалли и общественностью, а также углубления индивидуального подхода к подконтрольным лицам.*

**Ключевые слова:** *пробация, розыскная работа, пробационный надзор, представление в суд, электронный braslet, профилактика, ресоциализация.*

**Abstract**

*This article analyzes the legal and organizational foundations of organizing search activities within the probation service. Search work in the probation system is not limited to locating a person; it also serves to ensure compliance with court-imposed restrictions and obligations, prevent repeat offending, eliminate cases of evasion from supervision, and support the social reintegration of supervised persons. The article examines the*

*10'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-938-son, 2024-yil 7-avgust, 3-modda.*

*powers of the probation service, its cooperation with prevention and criminal investigation units of the internal affairs bodies, the procedure for submitting applications to the court, and the use of electronic monitoring tools and information systems. It also offers proposals for increasing the effectiveness of search activities through digitalization, stronger interagency information exchange, broader cooperation with mahalla and community institutions, and a deeper individualized approach to persons under probation supervision.*

**Keywords:** *probation, search activities, probation supervision, court submission, electronic bracelet, prevention, social reintegration.*

## KIRISH

Bugungi kunda jinoyat-ijroiya siyosatini insonparvarlashtirish va sudlangan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, probatsiya xizmati sud tayinlagan jazolar ijrosini ta'minlash bilan birga, mahkumlarning xulq-atvorini nazorat qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni ijtimoiy foydali turmush tarziga qaytar-ishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, probatsiya nazoratidagi shaxs yashash joyini o'zgartirib yuborganida, nazoratdan bo'yin tovlaganida, chaqiruvga kelmaganida yoki sud belgilagan taqiqlarga rioya etmay, turgan joyi noma'lum bo'lib qolganda qidiruv ishlarini to'g'ri tashkil etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. 2

Probatsiya xizmatidagi qidiruv ishlari klassik tezkor-qidiruv faoliyatidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Bunda asosiy maqsad shaxsni topishning o'zi emas, balki sud hujjati ijrosini ta'minlash, nazoratni tiklash, yangi huquqbuzarliklarning oldini olish hamda shaxsni ijtimoiy moslashtirish dasturidan uzilib qolishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Shu sababli mavzuni o'rganishda probatsiya, ichki ishlar organlari va jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish zarur bo'ladi.

### 1. Probatsiya xizmatida qidiruv ishlarining tushunchasi va huquqiy mohiyati

"Probatsiya to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, probatsiya muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari hamda ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Probatsiya nazorati esa shaxsning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish, unda qonunga itoatkorlik xulqini shakllantirish, sud belgilagan taqiq va majburiyatlar ijrosini ta'minlash hamda ijtimoiy rehabilitatsiyaga xizmat qiladi. 3

Mazkur mazmundan kelib chiqib, probatsiya xizmatidagi qidiruv ishlari deb probat-siya nazoratidagi shaxsning turgan joyini aniqlash, uning nazoratdan bo'yin tovlash sabablarini o'rganish, uni hisobga qayta qo'yish, sud belgilagan majburiyatlar ijrosini tiklash va zarur hollarda tegishli huquqiy ta'sir choralari qo'llashga qaratilgan tashk-iliy, nazorat, profilaktik va protsessual tadbirlar tizimini tushunish mumkin. Bu tad-

2O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-938-son, 2024-yil 7-avgust, 3-, 34- va 35-moddalar.

3O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.

birlar probatsiya bo'linmasining ichki imkoniyatlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari, jinoyat-qidiruv xizmati, mahalla, jamoat tarbiyachilari hamda boshqa subyektlarning hamkorligi asosida olib boriladi.

## 2. Probatsiya xizmatining qidiruv ishlari bilan bog'liq vakolatlari

Amaldagi qonunchilik probatsiya xizmatiga qidiruv ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan qator huquq va majburiyatlarni beradi. Xususan, probatsiya xizmati nazorat ostidagi shaxslardan probatsiya to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishni talab qilishga, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishga, yashash joyini belgilangan tartibda tekshirishga, ijtimoiy moslashtirish ishlariga davlat organlari va jamoatchilik vakillarini jalb etishga haqlidir. Shu bilan birga, sudning probatsiya nazoratiga oid so'rovlariga axborot taqdim etish, nazorat tartibini va uning huquqiy oqibatlarini tushuntirish, probatsiya hisobini yuritish probatsiya xizmatining majburiyatlari sirasiga kiradi. 4

Aynan shu huquq va majburiyatlar qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi. Dastlab probatsiya xodimi shaxs bilan aloqa uzilgan vaziyatda uning so'nggi yashash, ish yoki o'qish joyi bo'yicha ma'lumotlarni aniqlaydi, mahalla va qarindoshlari orqali qo'shimcha axborot oladi, oldin belgilangan taqiq va majburiy-atlarning qaysi biri buzilganini aniqlaydi. Agar shaxs chaqiruvga uzrli sababsiz kelmasa, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda uni majburiy keltirish choralari ham qo'llanilishi mumkin.

## 3. Qidiruv ishlarini tashkil etishning asosiy bosqichlari

Probatsiya xizmatida qidiruv ishlarini tashkil etishda avvalo nazoratdan chiqib ketish yoki yashirib yurish holatini rasmiy qayd etish muhimdir. Bu bosqichda shaxsning probatsiya bo'linmasiga kelmayotgani, yashash joyida yo'qligi, ish joyidan ketgani yoki sud belgilagan hududdan tashqariga chiqib ketgani haqidagi ma'lumotlar tekshiri-ladi. Shundan so'ng dastlabki qidiruv harakatlari amalga oshiriladi: manzilli tekshiruv, suhbat, so'rov, mahalla faollari va jamoat tarbiyachisi orqali ma'lumot yig'ish, tegishli profilaktika va qidiruv bo'linmalariga xabar berish kabilar qo'llanadi. 5

Agar shaxsning turgan joyi aniqlanmasa, probatsiya bo'linmasi unga nisbatan qidiruv e'lon qilish uchun sudga taqdimnoma yuboradi. Ushbu tartib 2025-yilda tasdiqlan-gan yo'riqnomada aniq belgilangan bo'lib, unda turgan joyi noma'lum bo'lgan pro-batsiya nazoratidagi shaxs bo'yicha sud ajrimi asosida qidiruv e'lon qilinishi nazarda tutilgan. Demak, probatsiya xizmatidagi qidiruv ishlari ichki xizmat tekshiruvi bilang-ina cheklanmaydi; ular sud nazorati bilan mustahkamlangan protsessual shaklga ega.

6

Bundan tashqari, sud tomonidan belgilangan konkret taqiqlarning mazmuni qidiruv faoliyatining shakliga ta'sir qiladi. Masalan, yashash joyini o'zgartirmaslik taqiqi

4 O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i, ro'yxat raqami 3670, 2025-yil 20-avgust 23- va 24-moddalar.

5 O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i, ro'yxat raqami 3670, 2025-yil 20-avgust, 35-band; O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 34- va 35-moddalar.

6 O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i, ro'yxat raqami 3670, 2025-yil 20-avgust, 35-va 57-bandlar.

bo'yicha nazorat tekshiruvlar o'tkazish orqali, muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik bo'yicha nazorat yashash va ish joyini kuzatib borish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat-qidiruv bo'linmalarining birgalikdagi ishlari orqali, aloqa vositalari yoki Internetdan foydalanmaslik bo'yicha nazorat esa profilaktik suhbatlar, tekshiruvlar va ayrim hollarda tezkor-qidiruv tadbirlari doirasida amalga oshiriladi. 7

4. Idoralararo hamkorlikning o'rni

Qidiruv ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan ichki ishlar organlari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlikka bog'liq. "Probatsiya to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasiga ko'ra, takroran huquqbuzarlik sodir etish xavfi aniqlangan hollarda tuman-shahar probatsiya bo'linmasi ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari bilan birgalikda profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi. Bu norma qidiruv ishlarining profilaktik tabiatga ham ega ekanini ko'rsatadi, chunki topilgan shaxs bilan keyingi ishlash, uning huquqbuzarlikka qayta moyilligini kamaytirish ham muhim vazifa hisoblanadi. 8

"Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunda ham ichki ishlar organlarining faoliyati davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa tashkilotlar, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan. Mazkur Qonunda jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlashda hamda huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga tegishli subyektlar ko'maklashishi shartligi ko'rsatilgan. Shu jihatdan probatsiya xizmati qidiruv ishlarida ham keng ijtimoiy va institutsional tayanchga ega. 9

Probatsiya nazoratini amalga oshirishga ko'maklashuvchi subyektlar qatoriga mehnat organlari, sog'liqni saqlash muassasalari, Yoshlar ishlari agentligi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolar kiradi. Mahalla tizimi ayniqsa shaxsning real yashash joyi, ijtimoiy muhiti, ish bilan bandligi va xulq-atvori haqidagi ma'lumotlarni tezkor aniqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli qidiruv ishlarini tashkil etishda jamoat tarbiyachisi, mahalla raisi, profilaktika inspektori va probatsiya xodimining uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. 10

5. Raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar

Hozirgi bosqichda probatsiya xizmatida qidiruv ishlarini samarali tashkil etish raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qonunchilikda probatsiyaga oid axborot tizimi

tushunchasining joriy etilishi, nazoratdagi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda yuritish va manfaatdor davlat organlari o'rtasida axborot almashish imkonini bermoqda. Bu esa shaxsning ro'yxatdagi manzili, sud belgilagan cheklovlari,

70'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 35-, 37- va 40-moddalar; ro'yxat raqami 3670 bo'lgan Yo'riqnoma, tegishli tekshiruv tartiblari.

80'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 51-modda.

90'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-407-son, 2016-yil 16-sentabr, davlat organlari, fuqarolar va OAV bilan hamkorlikka oid normalar.

100'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 13-, 19- va 20-moddalar.

ilgari sodir etgan buzilishlari va unga nisbatan qo'llangan ta'sir choralarini tezda aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, elektron kuzatuv vositasi — elektron brasletning qo'llanilishi ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tayotgan ayrim shaxslar ustidan masofadan turib nazoratni kuchaytiradi. Ushbu institut "Probatsiya to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlangan, elektron braslet orqali nazorat tartibi esa keyingi hukumat qarorlari bilan yanada takomillashtirilgan. Elektron monitoring tizimi qidiruv ishlari uchun ham muhimdir, chunki shaxs nazorat doirasini buzgan yoki qurilmaga aralashgan holatlarda tezkor reaksiya qilish imkonini beradi. 11

#### 6. Amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, probatsiya xizmatidagi qidiruv ishlarida ayrim muammo-lar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ayrim hollarda shaxslar haqidagi ma'lumotlarning tez-tez yangilanmasligi, idoralararo elektron axborot almashinuvi sustligi, ayrim hudud-larda jamoatchilik bilan ishlash mexanizmlarining yetarlicha faol emasligi, probatsiya nazoratidagi shaxslarning ish va ijtimoiy muammolariga o'z vaqtida yechim topilma-gani ularning nazoratdan chiqib ketish xavfini oshiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun birinchidan, probatsiya bo'linmalarining axborot-resurs bazasini kuchaytirish va barcha tegishli organlar uchun tezkor elektron integratsiyani kengaytirish lozim. Ikkinchidan, har bir probatsiya nazoratidagi shaxs bo'yicha individual risk bahosi yuritilib, qidiruvga moyillik yoki nazoratdan bo'yin tovlash xavfi yuqori bo'lgan shaxslar bilan oldindan profilaktik suhbatlar va manzilli ijtimoiy ish olib borilishi kerak. Uchinchidan, mahalla, profilaktika inspektori, mehnat organi va psixolog ishtirokidagi kompleks yondashuvni amaliyotga chuqurroq joriy etish zarur. To'rtinchidan, elektron braslet, geolokatsion monitoring va avtomatlashtir-ilgan ogohlantirish tizimlaridan foydalanish ko'lamini bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiq.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, probatsiya xizmatida qidiruv ishlarini tashkil etish sud hukm-lari ijrosini ta'minlash, nazoratdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni aniqlash, qayta huquqbuzarliklar xavfini kamaytirish hamda probatsiya nazoratidagi shaxslarni jamiy-atga qayta moslashtirishga qaratilgan murakkab va ko'p bosqichli faoliyatdir. Uning huquqiy poydevori "Probatsiya to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat-ijroiya kodeksi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi

Qonun, probatsiya nazoratini amalga oshirish tartibiga oid yo'riqnoma va elektron monitoringga doir hukumat hujjatlarida mustahkamlangan.

Qidiruv ishlarining samaradorligi probatsiya xodimining tashkiliy salohiyati, sud va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlik, jamoatchilikning amaliy ko'magi, shuningdek raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga bevosita bog'liqdir. Shu sababli probatsiya tizimida qidiruv ishlarini takomillashtirish nafaqat jazoni ijro etish

11O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 33-modda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6196-son Farmoni, 2021-yil 26-mart; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 813-son qarori, 2024-yil 5-dekabr.

tizimini mustahkamlaydi, balki jinoyatchilikning oldini olish, shaxsni tuzatish va jamiyat xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – 2023-yil 30-aprel.
  2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr.
  3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr.
  4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – 1997-yil 25-aprel.
  5. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-407-son, 16.09.2016.
  6. O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-938-son, 07.08.2024.
  7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – PF-6196-son, 26.03.2021.
  8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. – 813-son, 05.12.2024
  9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.
  10. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-344-son, 2012-yil 25-dekabr.
- Elektron manbalar:
11. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – <https://lex.uz>
  12. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining rasmiy veb-sayti. Probatsiya xizmatining yillik faoliyati sahifasi. – [https://gov.uz/oz/iiv/activity\\_page/probatsiya-xizmati](https://gov.uz/oz/iiv/activity_page/probatsiya-xizmati)
  13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – <https://president.uz>

14. BM Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi bosh boshqarmasi (UNODC). Evropa Probatsiya Konfederatsiyasi (CEP) hamkorligi haqida ma'lumot. – 2022. // [https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/ReducingReoffending/Confederation\\_of\\_European\\_Probation\\_-\\_UNODC\\_CEP\\_information\\_2022\\_final.pdf](https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/ReducingReoffending/Confederation_of_European_Probation_-_UNODC_CEP_information_2022_final.pdf)